



PEKIN KARAMI (*Brassica pekinensis* (Lour) YETISHTIRISHNING AMALIY JIHATLARI

Qahhorov Sirojiddin Qo‘shoqovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti assistenti

Bahronova Dilrabo Shamsiddin qizi

*Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
agronomiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Shoyimqulov Diyorbek Saydulla o‘g‘li

*Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
agronomiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

ANNOTATSIYA

Maqolada pekin karamining kelib chiqishi va yetishtirishning o‘ziga hos xususiyatlari yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Pekin karami, salatbob o‘simlik, provitamin A, vitamin S, sovuqqa chidamlilik.

KIRISH

Pekin karami bu bir yillik salatbob o‘simlik. Pekin karami (*Brassica pekinensis* (Lour) bu turni bargli, yarim boshli va boshli shakllari mavjud. Himoyalangan yerlarda eng tezpishar hisoblangan bargli shakllari yetishtiriladi. Pekin karami xitoy karamidan kelib chiqqan degan gaplar ham bor. Ko‘pchilik olimlar xitoy va pekin karamlarini hozirgacha bir-biri bilan chalkashtirib, ularni bir tur deb hisoblaydilar. Pekin va xitoy karamlari boshqa karam turlaridan barg shakllarini juda xilma-xilligi, tezpisharligi va urug‘ini ancha maydaligi bilan farqlanadi.

PEKIN KARAMI TARKIBI

Pekin karamini mashhurligi uni ta‘mi, parhezlik va ozuqalik xususiyatlari bilan bog‘liq. Tarkibida 5-10% quruq modda bo‘lganda u 2,4% gacha shakar, 3,5% gacha ho‘l oqsil, ko‘p mineral elementlarni, ayniqsa, magniy, fosfor, kaliy va temirni to‘playdi. U vitaminlarga ham boy: karotin (provitamin A) – 0,65 mg%, vitamin C – 50 mg% gacha, tiamin (vitamin B₁) – 0,04-0,18 mg%, niatsin (vitamin PP) – 0,53-1,0 mg%. U yurak va oshqozon yarasi kasalliklariga foydali.

Salatbob pekin karami yuqori hosildorlik, tezpisharlik (20-50 kun) va sovuqqa bardoshlik kabi qimmatli xo‘jalik belgilariga egadir.



БИОЛОГИК XUSUSIYATLARI

Pekin karami sovuqqa chidamli ekin hisoblanadi. Urug‘lar 3-4°C unib chiqa boshlaydi, urug‘larni unib chiqishi uchun maqbul harorat 20-25°C, o‘simliklarni o‘sishi va rivojlanishi uchun – 15-22°C. Katta yoshdagi xitoy karami pekin karamiga nisbatan ancha sovuqqa chidamli bo‘lib, -8°C gacha sovuqqa bardosh bera oladi.

Bu turdagi karam yorug‘sevar, shu bilan bir vaqtda salqinga kam chidamli ekin hisoblanadi. Bu o‘simlikni o‘sishi, rivojlanishini va gullashini tezlashtiradi. Mahsulot olish uchun qisqa kunda yetishtirish yaxshiroq.

Bu o‘simlik namni yaxshi ko‘radi va yuqori tuproq namligini (80-85%) va havoning nisbiy namligi (75-80%) talab qiladi. Ular neytral reaksiyasi tuproq muhitini (pH) xohlaydi, tuzga chidamsiz, yuqori me‘yorda o‘g‘itlar berilishini talab qiladi, ayniqsa azotli o‘g‘itlarni.

YETISHTIRISHNING AMALIY JIHALARI

O‘zbekistonda pekin karami navlaridan yaponiyani “Sakata” kompaniyasi seleksiyasi durgaylaridan F₁ CHa CHa va F₁ Yuka va Rossiyaning Xibinskaya navi davlat reyestriga kiritilib rayonlashtirilgan.

Salatbob pekin karamini himoyalangan yerlarda tuproqqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri urug‘ bilan, ham ko‘chat orqali ekib yetishtirish mumkin. Bu o‘simlik ko‘chatlari ko‘chirib o‘tkazishga chidamsiz hisoblanadi, shu bois uni ko‘chati pikirovkasiz kassetalarda yetishtiriladi. Ularni juda tezpisharligini inobatga olib ko‘chatlarni boshqa karam turlariga qaraganda ancha yosh vaqtda o‘tkazish va uni kichikroq oziqlanish maydonida yetishtirish kerak. Ko‘chatlarni yetishtirish uchun uyasi 2,5-2,8 sm kattalikdagi kassetalardan foydalanish yaxshiroq. Ko‘chatlarni yoshi 20 kunlik bo‘lib, 3-4 dona haqiqiy barg shakllantirganda asosiy yerga ko‘chirib o‘tkaziladi. Ko‘chatlarni yetishtirishda 1:0,5-1,0 nisbatda issiqxona tuprog‘i va chirindidan tayyorlangan tuproq aralashmasidan foydalanadilar va gul karamni yetishtirishdagi harorat va namlik tartibotlari saqlab turiladi.

Himoyalangan yerlarda salatbob pekin karami urug‘lari tez unib chiqadi, shu bois ularni ham ivitib ham quruq holda ekadilar. Himoyalangan yerlarda ularni hosili urug‘ ekilgandan so‘ng 35-40 kun o‘tgach va ko‘chat o‘tkazilgandan keyin 15-20 kun o‘tgach yig‘ishtirishga tayyor bo‘ladi. Pekin karamini bargli salatdan farqi, ularni urug‘i ko‘proq me‘yorda (0,6-0,8 g/m²) ekilishidadir. Urug‘ni ekish chuqurligi – 1-1,5 sm.

Pekin karami harorat +10°C dan past va 24°C dan yuqori, hamda uzun kun gulpoya chiqishini tezlashtiradi, hosildorlik va mahsulot sifatini pasaytiradi. O‘simliklarni yaxshi o‘sishi va eng ko‘p hosil berishi harorat 15-20°C bo‘lganda va qisqa yorug‘ kunda ta‘minlanadi.



Maqbul harorat saqlanib turiladigan issiqxonalarda pekin karamini noyabrdan martgacha yetishtirish mumkin. Vaqtincha plyonkali tonnellar ostida ularni fevral o'rtalaridan boshlab to mart boshlarigacha ekish yoki o'tkazish mumkin. Ko'chat bilan o'tkazilganda, to'g'ridan-to'g'ri tuproqqa urug' bilan ekilganga qaraganda mahsulot 20-25 kun ilgari chiqadi, hosildorlik esa organik moddalarni ildiz tuprog'i tupiga berib oziqlantirishni yaxshilash hisobiga anchaga oshadi.

Salatbob pekin karamini eni 45-70 sm li qator-oralarda va qatorda 20 sm masofada ekib yetishtiradilar. Pekin karamini parvarishlash maqbul havo haroratini, tuproq va havo namligini saqlash, egatlar orasini yumshatish va yaganalash (urug' bilan ekilganda), ozuqalarni berishdan iborat.

Egatlar orasini yumshatish va yaganalash urug'lar unib chiqqandan keyin 10-12 kun o'tgach o'tkaziladi. Oziqlantirish yaganalashdan keyin yoki ko'chat o'tkazilgandan so'ng 10-12 kun o'tgach olib boriladi. Bunda gektariga 70-80 kg hisobida azotli o'g'itlar beriladi.

Pekin karamini xohlagan yoshda, maysalashdan boshlab to gul poyalar hosil bo'lguncha iste'mol qilish mumkin. Shu bois yaganalashda olib tashlanadigan o'simliklaridan salatlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Hosilni yig'ish-terish ertalab barvaqt, salqin vaqtda o'tkazish yaxshiroq, bunda yig'ishtirilgan o'simliklar tovar ko'rinishini uzoqroq saqlaydi. O'simliklar ildizi bilan sug'urib yoki tuproq yuzidan 2-3 sm balandlikda kesib olib yig'ishtiriladi. Yig'ishtirilgan o'simliklar yashiklarga vertikal yoki gorizontal holda bir-biriga zich qilib joylanadi va nam material yoki plyonka bilan yopiladi. O'simliklarni paketlarga ham joylash mumkin. Yig'ishtirilgan hosilni uzoq vaqt va yuqori haroratda saqlash tavsiya etilmaydi, bu mahsulot sifatini pasaytiradi. 3-4°C haroratda xolodilniklarda yopiq polietilen idishda mahsulot 3-4 kun davomida yaxshi saqlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki pekin karamining inson organizmiga ta'sir etuvchi foydali xususiyatlari juda ham ko'p shu sababli yetishtirishning intensiv texnologiyalarini qo'llash orqali pekin karamini xalqimiz orasida ommalashtirishimiz va ko'paytirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Балашев Н.Н., — Сабзавотчилик. Т.,1977.
2. Qahhorov, S. Q. S. (2023). SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA ERTANGI EKIN SIFATIDA YETISHTIRILGAN BROKKOLI KARAMINING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGI. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 790-796.



3. Jumanov, L. (2023). PEKIN KARAMINING XUSUSIYATLARI VA ERTANGI MUDDATGA MOS NAVLARINI TANLASH. *Science and innovation in the education system*, 2(4), 116-118.
4. Қахҳоров, С. Қ. (2022). БРОККОЛИ КАРАМИНИ ТАКРОРИЙ ЭКИН СИФАТИДА ЕТИШТИРИШНИНГ АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 391-396.
5. Eshonkulov, B., Normurodov, D., & Ergashev, I. (2021). Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi.
6. Sanaev, S. T., Qahhorov, S. Q., & Sayfidinov, X. Z. (2024). THE ROLE OF BROCCOLE CABBAGE IN FOOD SECURITY. *TADQIQOTLAR*, 31(1), 160-162.
7. Қўшоқович, Қ. С., Спйфидинов, Х. З., & Самаридинович, Қ. Н. (2024). ГИЛОС (CERASUS AVIUM L.) МЕВАЛИ ЭКИНИНИ ЕТИШТИРИШНИНГ АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *TADQIQOTLAR*, 31(1), 154-159.
8. Shavkatovna, X. M., Ziyedullayevich, S. X., & Qo'shoqovich, Q. S. (2024). SHAFTOLI, OLXO 'RI VA BODOM PAYVANDTAGLARINI ISSIQXONADA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI. *TADQIQOTLAR*, 31(1), 163-167.
9. Sayfidinovich, B. Z. (2023). INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHGA QARATILGAN ISLOHOTLARNI O'RNI. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 1(3), 122–129. Retrieved from <https://sbtsuejournals.uz/index.php/EFI/article/view/85>
10. Bobomuradov, Z. S., & Bobokulov, Z. R. (2018). No_xat ekinining o_ziga xos xususiyatlari (Fermerlarga kichik maslaxat). *EVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR*, 989, 992.
11. Санаев, С. Т., & Файзимуродов, Ж. (2016). Технология возделывания сортов кукурузы как повторной посевной овощной культуры.
12. Saifidinovich, B. Z. (2023). STUDY OF GROWTH DYNAMICS OF PEA CROP IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY DEPENDING ON SOWING METHODS. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 1052–1059. Retrieved from <https://sbtsuejournals.uz/index.php/EFI/article/view/174>
13. Ҳасанов, Ш., & Муратов, Ш. (2023). ТОМОРҚА ХЎЖАЛИГИ ФАОЛИЯТИДАН КЕЛАДИГАН ДАРОМАДГА ИННОВАЦИЯЛАР ТАЪСИРИНИ ИҚТИСОДИЙ БАҲОЛАШ. *THE INNOVATION ECONOMY*, 1(01), 132-144.